



IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal



“MILLIY IQTISODIYOTNI BARQAROR SAQLASHDA “YASHIL IQTISODIYOT”, “YASHIL MOLIYA”, “YASHIL BUXGALTERIYA” VA ILG‘OR MUHANDISLIK MAKTABLARINI ILMIY-AMALIY INTEGRATSIYALASHTIRISH DOLZARBLIGI”

Maqola va tezislar to‘plami

2025-YIL
30-MAY



ROAD
74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982





IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 262 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 11-martda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Omborxonada wms tizimidan foydalanishni afzalliklari.....	16
G'ofurov Shoxjaxon Abdumajit o'g'li, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
Интеграция проектного офиса в корпоративную структуру строительной компании, работающей по ерс-контрактам.....	21
Махмудов Сардор Козим угли	
Investition muhit va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili	24
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li	
Tadbirkorlik faoliyati to'g'risidagi itimoiy-iqtisodiy qarashlar tahlili	27
Abduvohidov Behzod XXX	
Tijorat banklarida kredit portfelini boshqarishning asosiy yo'nalishlari.....	30
Jo'rayev Eldor Berdibekovich	
O'zbekistonda davlat budjetini kupaytirishda soliqlarni ahamiyati.....	34
Karimova Gulbahor Normurodovna	
Dunyo oziq-ovqat bozorining dinamik rivojlanishidagi o'zgarishlar, qiyinchiliklar va ularning yechimlari	36
Tolipova Baxtigul Farxodovna	
Исследование тепловых и диффузионных процессов при азотировании зубчатых колес в вакуумной среде	39
Жасурбек Юлдашбоевич Холмирзаев	
Axborot tizimlaridan foydalangan holda tashkilotni boshqarish bo'yicha qarorlar qabul qilishni takomillashtirish	49
Xujamova Shahrizoda Otabek Qizi	
Sanoat sektorida dekarbonizatsiya va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish strategiyalari	52
Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
Sanoat rivojlanishini ekonometrik modellashtirish (Surxondaryo viloyati misolida)	56
Xalmuratov Zakirjan Mekkamovich	
"Yashil iqtisodiyot" – barqaror taraqqiyot omili.....	58
Lapasova Kamola Farhod qizi	
Umumta'lim maktablarida informatika fanini o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	60
Raxmonov Baxtiyor Azzamovich	
"Makroiqtisodiy masalalarni yechishda matematik modellarning ahamiyati"	63
Abdiraimov Abbas Xolmurod O'g'li	
Moda marketingida iste'molchilarning ichki ehtiyojlari va xulq-atvoriga asoslangan yondashuvlar	67
Tuxtaeva Oydinoy Normamatovna	
O'zbekiston Respublikasida standartlashtirish siyosatida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik tahlili	72
Raximov Ilyos Muydinovich	
Tijorat banklarida omonatlarni jalb qilishda mijoz sodiqligini oshirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar	75
Raximov Shoxrux Furqatovich	
Raqamli bank xizmatlarida sun'iy intellektdan foydalanishning istiqbollari va xavfsizlik masalalari	78
Erdonayev Aliqul Xalimovich	
Ta'minot zanjirini optimallashtirish yo'llari.....	82
Matkarimova Umida Alisher qizi, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
The role of global value chains in international trade competition.....	85
Rakhmonova Dildora Ergash Qizi	
Электронная коммерция в узбекистане: государственные стратегии, технологический прогресс и барьеры развития.....	88
Махаммадалиева Муслимахон Шерали Кизи	



Modernization of the social protection system through digital technologies and innovative approaches.....	90
Abduzoirov Mukhiddin Umidjon ugli, Qudratov Inomjon Nemat ugli	
Tabiiy va sun'iy tolalar asosida qayta ishlangan mahsulotlarning texnologik sifati va iqtisodiy samaradorligi.....	93
Raximov Furqat Jalalovich	
Maishiy kimyo tovarlari B2B bozori uchun barqaror va yashil taqsimot modellarini ishlab chiqish.....	97
Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi	
Chakana savdo va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish	102
Po'latova Sug'diyona Iskandar qizi, Abdullayev Firdavs Sanjar o'g'li, Ravshanova Muxtarama	
Zamonaviy shahar massivlarida xizmat ko'rsatish va boshqarishda "Aqlli shahar" konsepsiyasi	105
Ismailov Najmiddin Ilxamovich	
Germaniyaning ta'minot zanjirlarini boshqarish tajribasidan foydalanishni afzalliklari.....	108
Nuriddinov G'ulomiddin Ziyovuddin o'g'li, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
Ta'minot zanjirida CPFR texnologiyasi foydalanishni afzalliklari.....	111
Komilov Muhammad Yusuf Sardorbek o'g'li, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
Ta'minot zanjirlarini qo'llashda jahon tajribasi.....	115
Karimov Amirxon Anvarovich, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
Sug'urtada investisiya faoliyatini tashkil etishni huquqiy asoslari	118
Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich	
Yurtimizda amaldagi budjetlararo munosabatlar tartibi, hisobi hamda uning afzalliklari	122
Po'latov Tirkash Sotiboldiyevich	
Aholini ijtimoiy himoya qilish institutlari shakllanishining xorij tajribalari	127
Bobonov N.H.	
Способ организации продуктивной работы преподавателя и его влияние на результативность	131
Гулнора Казимова	
Literature is a reflection of the soul and culture of humanity	136
Sayidova Sayyora Yorikulovna	
Turizm infratuzilmasida transport xizmatlarini integratsiyalash: muammo va yechimlar	140
Vakilov Ruslan Tillabayevich	
Ekoturizm va madaniy meros obyektlariga tashrifni tartibga soluvchi huquqiy normalar	142
Sayfiddinov Sharofiddinxo'ja Najmiddin o'g'li	
Strategies for achieving sustainable growth through green economy transition.....	145
Umida Kakhramonova Gayratovna	
Buxoro viloyatida qishloq xo'jaligida suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlar.....	149
Ro'ziyev Sobirjon Samatovich	
Xizmat ko'rsatish sohasida mulkni qayta baholash va unga yetkazilgan moddiy zararni aniqlash.....	153
Xadjayev Kamoliddin Fazliddinovich	
Shahar aglomeratsiyasining sifatini ekologik va geologik mezonlar asosida kompleks baholash.....	155
Irgashev Shavkatbek Turdiyevich	
Sanoatda korxonalarining qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosida barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlash	160
Qalandarova Gulshoda Nazirjon qizi	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududiy tengsizliklarni kamaytirish usullari.....	165
Ibragimov Baxrom Baxodirovich	
Tog' yon bag'rida joylashgan kon uymlarini ochiq usulda qazib olish xususiyatlari.....	174
I.T. Mislibayev, M.Sh. Ochilova	
Milliy iqtisodiyotda turizmning o'rni va rivojlanish imkoniyatlari.....	176
Xudoyberdiyeva Hilola Himmatovna	
China insurance market experience	178
Jumaboyev Akmal Sheraliyevich	



Tijorat banklarida moliyaviy resurslarning shakllanish manbalari.....	181
Tangirkulov Bekzod Boxadirovich	
Bank tizimida buxgalteriya hisobotlarida axborot texnologiyalarining roli va rivoji.....	185
Sodiqov Sanjar Saydullo o'g'li	
Samarali loyiha risklarini boshqarish: nazariya va amaliyot.....	189
Nosirova Gulira'no Abdulaziz qizi	
XXI-asrda Xitoyning iqtisodiy taraqqiyoti: sohaviy islohotlar, yutuqlar va muammolar tahlili.....	192
D.E.Qarshiyev	
Boshqaruv hisobining zamonaviy konsepsiyalarini joriy etish xo'jalik yurituvchi subyektlarda natijadorlikka erishishning muhim omilidir	195
Xoshimov Baxrom Baxadirovich	
Eksportga chiqariladigan mahsulotlar uchun zamonaviy qadoqlashning ahamiyati va tendensiyalari	201
Xidirov Shohrux Bobur o'g'li	
Усовершенствование подходов к управлению проблемными кредитами в коммерческих банках узбекистана	205
Улмасой Хусан кизи Ахмедова	
Sug'urtada investitsiya faoliyatini obyekt va predmeti	208
D.E.Qarshiev	
O'zbekistonda raqamli texnologiyalarning tadbirkorlik sohasida istiqbollari.....	211
Sattarov Xayrulla Fayzullayevich	
Sug'urtada anderryayting xizmatini xorij tajribasidan foydalanish.....	213
D.E. Qarshiev	
Важность проекта «умный город» в узбекистане	216
Акбаржон Иминов	
The role of digitalization of healthcare in the implementation of the safe city project	218
Акбаржон Iminov	
Moliyaviy faoliyat natijalari hisobini takomillashtirishda tahlilning o'rni.....	220
Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Abduxoliqov Isomiddin Ikrom o'g'li, Shakarov Shahzod Sobir o'g'li	
Temir yo'l va intermodal transport tizimining rivojlanishi: investitsiyalar, xarajatlar va samaradorlik tahlili.....	226
Turdiyeva Irodaxon Ismoil qizi	
O'zbekistonda qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ahamiyati.....	230
S.J. Yangiboev	
Korporativ boshqaruv va moliyaviy barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlik: davlat ishtirokidagi korxonalar misolida.....	234
Musurmonov Mehroj Murtaza o'g'li	
"Sanoat korxonalarida zamonaviy loyiha menejerining asosiy kompetensiyalar modelini ishlab chiqish"	238
Axmedov Daniyar Sabirovich, Valiyev Shamsiddin Eshpulatovich	
Turizmdagi shartnoma munosabatlari: turoperatorlar, turagentlar, turistik xizmatlar iste'molchilari.....	241
Ergasheva Iroda Ibrohim qizi	
"Разработка модели ключевых компетенций современного менеджера проекта в промышленных предприятиях"	243
Ахмедов Данияр Сабирович, Научный руководитель	
Xorijiy tajriba asosida o'zbekistonda oliy ta'lim akademik boshqaruvini takomillashtirish	249
Muxamedova Moxigul Xusanovna	
The role of international institutions in accelerating green finance	253
Qudratov Inomjon Nemat o'g'li	
Barqaror iqtisodiy o'sish sharoitida yashil innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish	257
Xudayberdieva Dilnoza Egamberdiyevna	



BARQAROR IQTISODIY O'SISH SHAROITIDA YASHIL INNOVATSIYALAR VA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNI RIVOJLANTIRISH

Xudayberdiyeva Dilnoza

Bank Moliya Akademiyasi tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda yashil innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarning o'zaro integratsiyalashuvi o'rganiladi. Tadqiqot davomida mazkur texnologiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish, ekologik muvozanatni tiklash va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash imkoniyatlari tahlil qilingan. Xususan, sun'iy intellekt, IoT, Big Data kabi raqamli vositalarning energiya samaradorligini optimallashtirishdagi roli, shuningdek, yashil innovatsiyalar orqali karbon izini kamaytirish, chiqindilarni qayta ishlash va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishning afzalliklari ochib berilgan. Maqola "raqamli-yashil transformatsiya" modelining amaliy salohiyatini baholash va O'zbekiston tajribasi bilan qiyosiy tahlil qilishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: barqaror iqtisodiy o'sish, yashil innovatsiyalar, raqamli texnologiyalar, ekologik barqarorlik, energiya samaradorligi, raqamli transformatsiya.

Abstract: This scientific article explores the integration of green innovations and digital technologies in the context of achieving sustainable economic growth. The study analyzes how the implementation of such technologies can improve economic efficiency, restore ecological balance, and ensure social stability. In particular, it highlights the role of digital tools such as artificial intelligence, IoT, and Big Data in optimizing energy efficiency, along with the benefits of green innovations in reducing carbon footprints, recycling, and utilizing renewable energy sources. The paper focuses on evaluating the practical potential of the "digital-green transformation" model with a comparative analysis of Uzbekistan's experience.

Key words: sustainable economic growth, green innovations, digital technologies, ecological sustainability, energy efficiency, digital transformation.

Аннотация: В данной научной статье исследуется интеграция зеленых инноваций и цифровых технологий в процессе обеспечения устойчивого экономического роста. В ходе исследования проанализированы возможности повышения экономической эффективности, восстановления экологического равновесия и достижения социальной устойчивости посредством внедрения данных технологий. В частности, раскрыта роль цифровых инструментов, таких как искусственный интеллект, IoT и Big Data в оптимизации энергопотребления, а также преимущества использования возобновляемых источников энергии и переработки отходов. Работа направлена на оценку прикладного потенциала модели "цифрово-зеленой трансформации" с учетом опыта Узбекистана.

Ключевые слова: устойчивый экономический рост, зеленые инновации, цифровые технологии, экологическая устойчивость, энергоэффективность, цифровая трансформация.

KIRISH

Bugungi globallashuv va sanoat rivojlanishi davrida insoniyat iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi, ekologik muvozanatning buzilishi kabi dolzarb muammolarga duch kelmoqda. Ayniqsa, iqtisodiy o'sishni faqat sanoat salohiyatini oshirish bilan emas, balki ekologik barqarorlik bilan uyg'unlashtirish zarurati keskin ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, barqaror iqtisodiy o'sish – bu faqat yalpi ichki mahsulotning (YalIM) o'sishi emas, balki ijtimoiy farovonlik, ekologik xavfsizlik va texnologik modernizatsiyani o'zaro uyg'un holda amalga oshirishni nazarda tutadi. Yashil innovatsiyalar (green innovations) — bu ekologik xavfsiz texnologiyalarni ishlab chiqish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy qilish, chiqindilarni kamaytirish va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydigan ilg'or yechimlardir. Yashil innovatsiyalar sanoat, transport, energetika va qishloq xo'jaligi kabi asosiy tarmoqlarda karbon izini kamaytirish, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik muvozanatni tiklashga xizmat qiladi. Bu innovatsiyalar orqali nafaqat ekologik barqarorlik, balki yangi ish o'rinlari yaratish, eksport salohiyatini oshirish va investitsiya muhitini yaxshilashga erishiladi.

Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar — xususan, sun'iy intellekt, IoT (Internet of Things), blokcheyn, katta ma'lumotlar (Big Data) va raqamli platformalar barqarorlikni ta'minlashda muhim vositaga aylanmoqda. Ular ishlab chiqarish jarayonlarida resurslardan optimal foydalanish, ekologik monitoringni kuchaytirish,



samaradorlikni oshirish va real vaqtda tahlil qilish imkonini beradi. Raqamlashtirish, ayniqsa, energetika va transport sohalarida karbon chiqindilarini qisqartirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, yashil innovatsiyalar va raqamli texnologiyalar integratsiyasi iqtisodiy o'sishning sifat jihatdan yangi bosqichiga olib chiqadi. Ular nafaqat iqtisodiy samaradorlikni, balki atrof-muhit barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu sababli, ilmiy izlanishlar, davlat siyosati va xususiy sektor investitsiyalari aynan ushbu yo'nalishlarda uyg'unlashgan holda olib borilishi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Barqaror iqtisodiy o'sish esa iqtisodiy taraqqiyotning atrof-muhitga zarar yetkazmasdan, ijtimoiy adolat va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlagan holda amalga oshirilishini anglatadi. Ushbu tushuncha Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan "Barqaror rivojlanish maqsadlari" (Sustainable Development Goals – SDGs) doirasida muhim strategik yo'nalish sifatida belgilanib, "uch asosiy o'lchov" yoki "triple bottom line" tamoyiliga asoslanadi. Bu o'lchovlar: iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy barqarorlikni o'z ichiga oladi. Iqtisodiy barqarorlik nafaqat yalpi ichki mahsulot (YaIM) o'sishi bilan, balki iqtisodiy resurslardan samarali va tejamkorlik bilan foydalanish, yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan tarmoqlarni rivojlantirish va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish orqali belgilanadi. Shuningdek, ish o'rinlarini yaratish, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va xususiy sektor raqobatbardoshligini oshirish orqali iqtisodiy o'sishning uzoq muddatli asoslari mustahkamlanadi. Ekologik barqarorlik esa tabiiy resurslardan foydalanishda ekologik chegaralarga rioya qilish, biologik xilma-xillikni saqlash, atmosferaga zararli chiqindilarni (ayniqsa, karbon dioksid va boshqa issiqxona gazlarini) kamaytirish, chiqindilarni qayta ishlash va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan (quyosh, shamol, bioenergiya va h.k.) foydalanish orqali amalga oshiriladi. Bu yo'nalishda ekologik texnologiyalar va yashil innovatsiyalar muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy barqarorlik esa aholining turmush darajasini oshirish, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlariga teng imkoniyat yaratish, bandlikni ta'minlash, gender tengligi, ijtimoiy adolat va aholining barcha qatlamlari uchun ijtimoiy himoyani kuchaytirishni o'z ichiga oladi. Bu orqali jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va ijtimoiy kapital mustahkamlanadi, iqtisodiy islohotlarning ijobiy samarasidan hamma teng darajada bahramand bo'lishi ta'minlanadi.

Yashil innovatsiyalar esa ekologik jihatdan xavfsiz, energiya samarador va resurs tejovchi texnologiyalarni yaratish va joriy etishga yo'naltirilgan innovatsion faoliyat turi bo'lib, barqaror rivojlanish strategiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular atrof-muhitga antropogen bosimni kamaytirish, iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini yumshatish va resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi. Yashil innovatsiyalar, ayniqsa, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, energiya samaradorligini oshirish va chiqindilarni qayta ishlash orqali iqtisodiy va ekologik muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi. Ular mahsulotlar hayotiy siklini uzaytiradi, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi va xomashyo sarfini optimallashtiradi. Buning natijasida nafaqat atrof-muhitga zarar kamayadi, balki iqtisodiy samaradorlik ham ortadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Barqaror iqtisodiy o'sish va yashil innovatsiyalarni rivojlantirish bugungi global iqtisodiyotda dolzarb ilmiy va amaliy muammolardan biri hisoblanadi. Shu bois, so'nggi yillarda ushbu yo'nalish bo'yicha turli xalqaro tashkilotlar, iqtisodchilar va ilmiy muassasalar tomonidan keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmoqda.

Jeffrey D. Sachs tomonidan yozilgan «The Age of Sustainable Development» (2015) asarida barqaror rivojlanish kontsepsiyasi chuqur tahlil qilinadi. Muallif barqaror iqtisodiy o'sishni ijtimoiy adolat, ekologik muvozanat va texnologik innovatsiyalar bilan uyg'un holda olib borish lozimligini ta'kidlaydi. U energiya samaradorligini oshirish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda innovatsiyalarning roli haqida muhim dalillar keltiradi.

Geissdoerfer et al. (2017) tomonidan Journal of Cleaner Production jurnalida chop etilgan maqolada «aylana iqtisodiyot» (circular economy) kontsepsiyasi yangi barqarorlik paradigmasi sifatida tahlil qilinadi. Unda yashil innovatsiyalar resurslar siklini yopish, chiqindilarni kamaytirish va ishlab chiqarishni transformatsiya qilish vositasi sifatida qaraladi.

IEA – International Energy Agency (2021) tomonidan taqdim etilgan "Renewables 2021" hisobotida qayta tiklanadigan energiya manbalarining global iqtisodiy o'sishga qo'shgan hissasi va yashil texnologiyalarning iqtisodiy samaradorligi ko'rsatib o'tilgan. Ayniqsa, quyosh va shamol energetikasi orqali elektr ishlab chiqarish hajmining keskin ortgani qayd etiladi.

OECD (2019) tomonidan e'lon qilingan "Going Digital: Shaping Policies, Improving Lives" nomli hisobotda raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy faoliyatning har tomonlama samaradorligi oshirilishi va barqarorlik indikatorlariga ijobiy ta'siri tahlil qilinadi. Xususan, sun'iy intellekt, IoT va Big Data yechimlarining ekologik monitoring va energiya boshqaruvidagi roli asoslangan.

UNFCCC (2015) tomonidan ishlab chiqilgan Parij bitimi (Paris Agreement) global miqyosda yashil texnologiyalar va past karbonli iqtisodiyotni rivojlantirishga doir majburiyatlar majmuasini belgilaydi. Bu hujjatda



mamlakatlar tomonidan raqamli texnologiyalar yordamida ekologik ko'rsatkichlarni nazorat qilish va barqaror innovatsiyalarni ilgari surish zarurligi qayd etilgan.

O'zbekistonda esa "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi (2020) asosida davlat boshqaruvi, energetika, transport, sog'liqni saqlash va boshqa tarmoqlarda raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha tizimli ishlar yo'lga qo'yilgan. Shu bilan birga, Nur Navoi va Zarafshon quyosh elektr stansiyalari kabi loyihalar yashil energetika rivojining amaliy ifodasi bo'lib xizmat qilmoqda.

Jahon banki (World Bank, 2020)ning "World Development Report" hisobotida ham texnologik innovatsiyalar, ayniqsa, yashil va raqamli transformatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka ijobiy ta'siri aniq misollar asosida ko'rsatilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ilmiy tadqiqotda barqaror iqtisodiy o'sish jarayonida yashil innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarning o'zaro bog'liqligi, ularning iqtisodiy samaradorlik, ekologik barqarorlik va ijtimoiy taraqqiyotga ko'rsatadigan ta'siri keng qamrovda o'rganildi. Tadqiqotda umumiy ilmiy yondashuvlar bilan bir qatorda zamonaviy iqtisodiy-analitik uslublar ham qo'llanildi. Asosiy ilmiy metod sifatida deskriptiv (ta'riflovchi) va analitik yondashuvlardan foydalanildi. Deskriptiv metod yordamida barqaror iqtisodiy o'sish, yashil innovatsiyalar va raqamli texnologiyalar konsepsiyalari nazariy jihatdan sharhlab chiqildi, ularning tarkibiy xususiyatlari va taraqqiyotga ta'siri aniqlashtirildi. Analitik yondashuv esa bu tushunchalar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni baholash, hamda mavjud iqtisodiy va ijtimoiy natijalar asosida xulosa chiqarish imkonini berdi.

Tadqiqot uchun zarur ma'lumotlar xalqaro tashkilotlarning (BMT, IEA, OECD, Jahon banki) rasmiy hisobotlari, statistik ko'rsatkichlari, ilmiy maqolalar, tahliliy sharhlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, strategik dasturlari va normativ-me'yoriy hujjatlaridan foydalanish orqali shakllantirildi. Jumladan, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi, "Yashil energetika bo'yicha milliy strategiya", "Nur Navoi" quyosh elektr stansiyasi, "Smart Metering" loyihasi kabi milliy tashabbus va loyihalar tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida solishtirma tahlil usulidan foydalanilib, rivojlangan mamlakatlar – Yevropa Ittifoqi, AQSh va Xitoyning yashil va raqamli transformatsiya sohasidagi yondashuvlari O'zbekiston tajribasi bilan qiyosiy jihatdan o'rganildi. Shuningdek, SWOT-tahlil orqali yashil va raqamli texnologiyalarni joriy etishdagi imkoniyatlar, xavf-xatarlar, ustunliklar va zaif jihatlar baholandi. Sistemali yondashuv esa iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy omillar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni aniqlashga yordam berdi. Scenario tahlil orqali esa turli darajadagi texnologik transformatsiya sharoitida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy holatlar baholandi, bu esa tadqiqotga prognoz va tavsiyalar berish imkoniyatini yaratdi.

Tadqiqotning cheklovli jihatlari sifatida ayrim statistik ma'lumotlarning to'liq emasligi, raqamli texnologiyalarning uzoq muddatli iqtisodiy va ekologik ta'sirini aniqlashdagi noaniqliklar, shuningdek, xalqaro tajribani milliy sharoitga to'liq tatbiq qilishdagi kontekstual farqlar qayd etildi. Ushbu cheklovlar tadqiqot natijalarining tahliliy doirasida hisobga olingan va ularni minimallashtirishga qaratilgan ehtiyot choralari ko'rilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yashil innovatsiyalar zamonaviy iqtisodiy va ekologik transformatsiyaning ajralmas qismi sifatida, nafaqat ekologik xavfsizlikni ta'minlash, balki ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda ham bevosita muhim rol o'ynamoqda. Ularning amaliy ahamiyati yangi ish o'rinlarini yaratish, xarajatlarni optimallashtirish va atrof-muhitni muhofaza qilish bilan chambarchas bog'liqdir. Xususan, yashil texnologiyalarni ishlab chiqish, o'rnatish va ekspluatatsiya qilish yo'nalishida yangi mutaxassisliklar shakllanib, mehnat bozorida "yashil bandlik" deb ataluvchi yangi segment vujudga kelmoqda. Bu esa bandlik darajasini oshirib, aholi uchun barqaror va ekologik jihatdan mas'uliyatli mehnat imkoniyatlarini yaratadi. Shu bilan birga, energiya va resurslardan tejamkor foydalanish imkonini beruvchi texnologiyalar sanoat va uy xo'jaliklari miqyosida umumiy xarajatlarni kamaytiradi. Ekotizimlarga yuklamaning kamayishi, suv va havo sifatining yaxshilanishi hamda iqlim o'zgarishi ta'sirining yumshashi orqali yashil innovatsiyalar ekologik barqarorlikni ta'minlashda ham muhim vositaga aylanadi.

Zamonaviy raqamli texnologiyalar sanoat, transport, energetika, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalarida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, raqamlashtirish jarayoni barqaror rivojlanish tamoyillarini amalga oshirishda asosiy omil sifatida e'tirof etilmoqda. Raqamli texnologiyalar resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi, chiqindilarni kamaytiradi, ekologik monitoring imkoniyatlarini kengaytiradi va ekologik-iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi muvozanatni saqlash imkonini yaratadi. Bu jarayonda aqlli energetik tizimlar (smart grids) muhim o'rin egallaydi. Bunday tizimlar elektr energiyasining ishlab chiqarilishi, taqsimoti va iste'molini real vaqt rejimida kuzatish hamda boshqarishga imkon beradi. Ular qayta tiklanadigan energiya manbalarini samarali integratsiyalash, energiya yo'qotilishini kamaytirish va iste'molchilar talabiga mos ravishda taqsimotni avtomatlashtirish orqali tizim barqarorligini oshiradi.



Internet narsalar (IoT) texnologiyasi esa turli jismoniy qurilmalar va datchiklarni tarmoqqa ulagan holda energiya, suv, gaz resurslari sarfini monitoring qilish, qishloq xo'jaligida suv taqsimoti va o'g'itlash jarayonlarini optimallashtirish hamda sanoatdagi uskunalar ish faoliyatini nazorat qilish imkonini beradi. IoT yechimlari ekologik monitoring, chiqindilarni kamaytirish va resurslar boshqaruvi sohasida yangi imkoniyatlar ochadi. Sun'iy intellekt (AI) texnologiyalari esa energiya sarfini prognozlash, ishlab chiqarish jarayonlarida chiqindilarni minimallashtirish, transport logistikasi va yoqilg'i sarfini kamaytirish, shuningdek, ekotizim monitoringi orqali iqlim o'zgarishlariga moslashuv strategiyalarini ishlab chiqishda qo'llaniladi. AI yordamida murakkab tizimlardagi resurs oqimlari va ekologik indikatorlar real vaqt tahliliga asoslangan holda boshqariladi.

Yashil innovatsiyalar va raqamli texnologiyalar integratsiyasi, ya'ni "raqamli yashil transformatsiya" zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotning strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ularning uyg'unlashuvi energiya samaradorligi, iqtisodiy raqobatbardoshlik va ekologik barqarorlik o'rtasida yangi muvozanat yaratadi. Raqamli texnologiyalar bu transformatsiyani quyidagi yo'llar orqali qo'llab-quvvatlaydi: katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish asosida energiya sarfini optimallashtirish; real vaqt rejimida ishlab chiqarish, transport va kommunal xizmatlarda energiya oqimini kuzatish; ortiqcha iste'molni aniqlash; ekologik resurslardan tejamkor foydalanishni ta'minlash. Masalan, sanoat korxonalarida aqlli qurilmalar va datchiklar yordamida energiya oqimlari avtomatik tarzda optimallashtirilmoqda.

Shuningdek, IoT va sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslangan ekologik monitoring tizimlari havo, suv, tuproq sifati va chiqindilar darajasini real vaqt rejimida nazorat qilish imkonini beradi. Bu tizimlar ekologik muammolarni erta aniqlash, xavf darajasini baholash va resurs siyosatini optimallashtirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, sanoat hududlari va urbanizatsiyalashgan shaharlar uchun bunday tizimlar strategik ahamiyatga ega. Ushbu integratsiya orqali quyidagi natijalarga erishiladi: ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish orqali iqtisodiy samaradorlikka; chiqindilarni kamaytirish orqali ekologik barqarorlikka; eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish orqali innovatsion raqobatbardoshlikka; hamda texnik mutaxassislariga ehtiyoj ortishi orqali yashil bandlik darajasining oshishiga.

Bugungi kunda ko'plab rivojlangan davlatlar — jumladan, Yevropa Ittifoqi, AQSh va Xitoy — yashil innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarni uyg'unlashtirish orqali barqaror iqtisodiy model yaratishga erishmoqda. Yevropa Ittifoqida "Green Deal" va "Digital Europe" dasturlari asosida 2050-yilgacha karbon neytralligiga erishish rejalashtirilgan bo'lib, qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik transport yo'nalishlariga milliardlab yevrolik sarmoyalar kiritilmoqda. AQShda esa "Inflation Reduction Act" doirasida ekologik texnologiyalarga 370 milliard dollargacha sarmoya jalb qilinmoqda. Bu orqali quyosh va shamol elektr stansiyalari, elektromobillar va AI asosidagi energiya boshqaruvi tizimlari keng miqyosda joriy etilmoqda. Xitoy esa global quyosh paneli ishlab chiqaruvchisi sifatida "aqlli shaharlar", IoT va sun'iy intellektga asoslangan ekologik monitoring tizimlarini faol rivojlantirmoqda hamda 2060-yilgacha karbon neytralligiga erishishni maqsad qilgan.

O'zbekiston uchun ham yashil va raqamli transformatsiya sohasida katta imkoniyatlar mavjud. Xususan, quyosh energetikasini rivojlantirish borasida "Nur Navoi" va "Zarafshon" quyosh elektr stansiyalari kabi loyihalar ishga tushirilgan. Bu esa nafaqat energiya manbalarining diversifikatsiyasi, balki atrof-muhitga yuklamani kamaytirishda muhim omil bo'lmoqda. "Smart Metering" loyihasi doirasida elektr, gaz va suv ta'minoti tizimlarida raqamli hisoblagichlar joriy qilinmoqda. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi asosida esa davlat boshqaruvi, sog'liqni saqlash, ta'lim, transport va energetika tarmoqlarini raqamlashtirish orqali samaradorlik va shaffoflik oshirilmoqda. Shu bilan birga, innovatsion ekotizimlar — texnoparklar, startap markazlari, ilmiy-texnik klasterlar — shakllanmoqda. Bu tizimlar yashil texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishda muhim asos vazifasini o'tamoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yashil innovatsiyalar va raqamli texnologiyalar zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotda o'zaro uyg'unlashgan holda ishlatilganda, iqtisodiy samaradorlik, ekologik barqarorlik va ijtimoiy rivojlanishning muvozanatli modelini yaratadi. Ularning integratsiyasi orqali resurslardan tejamkor foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish va yangi texnologik yechimlar orqali global iqlim o'zgarishiga moslashish imkoniyati yuzaga keladi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, yashil innovatsiyalar orqali iqtisodiy o'sish ekologik xavfsizlik bilan uyg'unlashtiriladi va yangi "yashil ish o'rinlari" yaratiladi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar – xususan IoT, sun'iy intellekt (AI) va katta ma'lumotlar (Big Data) – real vaqtli monitoring va tahlil orqali energiya va resurslar boshqaruvini optimallashtirish imkonini beradi. "Raqamli yashil transformatsiya" modeli esa iqtisodiy samaradorlik, ekologik xavfsizlik va innovatsion raqobatbardoshlikni birgalikda ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu holatlarni inobatga olgan holda, quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq: birinchidan, yashil va raqamli texnologiyalar integratsiyasini rag'batlantiruvchi strategiyalarni ishlab chiqish va normativ-huquqiy bazani takomillashtirish zarur; ikkinchidan, ushbu yo'nalishda faoliyat yuritayotgan korxonalar uchun soliq



imtiyozlari, subsidiyalar va grantlar mexanizmlari kuchaytirilishi lozim; uchinchidan, energetika, transport va kommunal xizmatlar sohasida raqamli hisoblagichlar, aqlli tarmoqlar va ekologik monitoring tizimlarini keng joriy etish talab etiladi; to'rtinchidan, yashil texnologiyalar va raqamli yo'nalishlar bo'yicha malakali kadrlar tayyorlash, oliy ta'lim va kasb-hunar tizimini zamonaviy talablar asosida moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi; beshinchidan, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish, ilg'or tajribalarni o'rganish va milliy amaliyotga joriy etish barqaror rivojlanishga xizmat qiladi. Ushbu takliflar asosida O'zbekistonning barqaror iqtisodiy rivojlanishida yashil va raqamli innovatsiyalar strategik omil sifatida muhim rol o'ynashi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sachs, J. D. (2015). The Age of Sustainable Development. Columbia University Press.
2. International Energy Agency (IEA). (2021). Renewables 2021: Analysis and forecast to 2026.
3. United Nations Framework Convention on Climate Change (UNFCCC). (2015). Paris Agreement.
4. World Bank. (2020). World Development Report 2020.
5. Geissdoerfer, M. et al. (2017). The Circular Economy – A new sustainability paradigm? Journal of Cleaner Production, 143, 757-768.
6. OECD. (2019). Going Digital: Shaping Policies, Improving Lives.
7. IPCC. (2021). Climate Change 2021: The Physical Science Basis.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025-yil, may.

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>